

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**«Himoyaga ruxsat etildi»**

\_\_\_\_\_

Ijtimoiy – iqtisodiy fakul’tet dekani

t.f.n.dots. N.Dexqonov

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2017 yil

**IJTIMOIIY – IQTISODIIY FAKUL’TETI**

**5610400 –Ijtimoiy madaniy faoliyat yo`nalishi  
4-kurs IMF-71-13-guruh talabasi**

**Turg’unov Muhammad Solimxon o’g’li**

**Ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijtimoiy hamkorlikning namoyon**

**bo‘lishi va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni**

**mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: t.f.n. Z. U. Xaydarov**

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

**“Ijtimoiy-madaniy faoliyat”**

kafedrası mudiri: t.f.n. O.Topildiyev

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2017 yil.

**MUNDARIJA**

**Kirish** .....3-5

**I.BOB. IJTIMOIIY HAMKORLIKNING ILMIIY-NAZARIY VA****HUQUQIIY ASOSLARI**

**1.1. Ijtimoiy hamkorlikning nazariy va huquqiy asoslari** .....6-18

**1.2. Ijtimoiy hamkorlikning muhim komponentlari**.....19-29

**II. BOB. IJTIMOIIY-MADANIY HAYOTDA IJTIMOIIY****HAMKORLIKNING NAMOYON BO"LIHI VA JAMIYAT****TARAQQIIYOTI**

**2.1. Ijtimoiy hamkorlik jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muhim sub'yekt sifatida** .....30-40

**2.2. Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatida ijtimoiy hamkorlik munosabatlarining ahamiyati va jamoatchilik nazorati** .....41-50

**Xulosa** ..... 51-53

**Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati**..... 54-54

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o'z oldiga erkin, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi. Mazkur maqsadga erishish jarayonida bosqichma bosqich fuqarolik jamiyatining tarkibiy institutlarini, xususan, uning muhim bo'g'ini hisoblangan jamoat tashkilotlarini, nodavlat notijorat tashkilotlarni jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash, oshirish borasida tub islohotlar amalga oshirib kelindi. O'zbekiston Respublikasida bu islohotlar birinchi navbatda inson va uning manfaatlariga qaratilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek-“Inson manfaatlarini ta'minlash uchun esa, avvalo odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dard-u tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak.”<sup>1</sup> Bu kabi murakkab vazifani ado etishda esa ijtimoiy hamkorlik nafaqat demokratik jamiyatning belgisi, balki xalq manfaatlarini ta'minlash mexanizmi sifatida katta ahamiyatga ega.

Islohotlar ko'p qirrali va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, unda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik hamda olib borilayotgan islohotlarning sifati, samarasi ko'p jihatdan jamoatchilikning ishtirokiga bog'liq. Shu jihatdan uni shakllantirishda muayyan ijtimoiy institutlarga, hususan jamoat tashkilotlariga muhim o'rin berildi. Binobarin, samarali faoliyat yuritadigan jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlarni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish shuningdek, jamiyatda maqsadli ijtimoiy hamkorlikni ta'minlash demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi davlatning eng muhim funksiyalaridan biri etib belgilandi.

Shuningdek, bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

Birinchidan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida ham ijtimoiy hamkorlikni ifodalovchi masalasi bir necha bor e'tirof etiladi. Bu borada jismonan

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash -yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-Toshkent: O'zbekiston, 2017.- B.9.

sogʻlom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qatʻiy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida qaraladi.<sup>1</sup>

Ikkinchidan, Ijtimoiy hamkorlik fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti xisoblanib, Oʻzbekiston Respublikasida bu faoliyatning huquqiy asoslari yaratildi. Jamiyat hayotida uning amalga oshirish mexanizmlari qanday kechayotganligini oʻrganish ijtimoiy fanlar oldida turgan dolzarb masaladir.

Uchinchidan, milliy anʼana va qadriyat darajasida shakllangan, oʻzbek xalqi milliy mentalitetida katta ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan jamoaviylik xususiyati ham ijtimoiy hamkorlikni ifoda etib, jamiyatda moddiy va maʼnaviy boyliklarni bunyod etishda ijtimoiy jarayon subʼyektlarini birgalikdagi faoliyatga chorlagan.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsadi ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijtimoiy hamkorlikning namoyon boʻlishi va uning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrnini tadqiq etishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- Ijtimoiy hamkorlikning nazariy va huquqiy asoslarini oʻrganish;
- Ijtimoiy hamkorlikning muhim komponentlarini tahlil qilish;
- Taʼlim va madaniyat tizimidagi ijtimoiy madaniy faoliyatda ijtimoiy hamkorlikning namoyon boʻlishini oʻrganish;
- Fuqarolar oʻzini-oʻzi boshqarish organlari faoliyatida ijtimoiy hamkorlik munosabatlarining ahamiyatini tadqiq qilish.

**Bitiruv malakaviy ishining obʼyeksi va predmeti.** Bitiruv malakaviy ishining asosiy obʼyeksi ijtimoiy hamkorlikning namoyon boʻlish sohalari hisoblanadi. Ijtimoiy-hamkorlikni usullari va vositalari ishning predmetini tashkil etadi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ги фармони// Халқ сўзи, 2017 йил 7 феврал

**Mavzuning nazariy-uslubiy asoslari.** O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev va birinchi Prezidenti I.A. Karimovning asarlarida ilgari surilgan g'oya va fikrlar shuningdek, mavzu doirasidagi ilmiy adabiyotlar mavzuni keng yoritilishi nazariy asos vazifasini o`tdi.

Mavzuning yoritishda bugungi kunda ilmiy izlanishlar olib borishda qabul qilingan haqqoniylik, xolislik, davriylik kabi tamoyillarga tayanildi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishida ijtimoiy hamkorlik masalasi bugungi jamiyatning ma'naviy yangilanishiga mutanosib holda tahlil etilgan bo`lib, u bilan mavzuga oid nazariy qarashlarni mustahkamlash mumkin. Ishda keltirilgan ma'lumotlardan o`quv adabiyotlarni yangi avlodini yaratishda foydalanish mumkin.

**Malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

## **I.BOB. IJTIMOIIY HAMKORLIKNING ILMIY-NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI**

### **1.1. Ijtimoiy hamkorlikning nazariy va huquqiy asoslari**

O‘zbekiston Respublikasi kundan kunga o‘zing ijtimoiy, iqtisodiy o‘shish sur‘atlari bilan dunyo hamjamiyatidagi o‘rnini yanada mustahkamlab bormoqda. Bunda milliy davlatchilik an‘analari va xalqaro tajribani o‘zlashtirib, o‘z rivojlanish strategiyasini belgilab oldi. Bu jarayonda ijtimoiy hamkorlik masalasi ham jamiyat hayotida yaqqol namoyon eta boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qator moddalari, jumladan 34-moddasida fuqarolarning kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatda ishtirok etish huquqlariga ega ekanliklari belgilab qo‘yilgan.<sup>1</sup>

Bugungi kunda ijtimoiy hamkorlik munosabatlari davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, tadbirkorlik sub’yektlari o‘rtasida keng qo‘llanib kelinmoqda.

Mamlakatimizda o‘tgan davrda aholi keng qatlamlari manfaatlarini qo‘llab-quvvatlaydigan turli fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining jadal shakllanishiga alohida e‘tibor qaratilib, bu borada keng ko‘lamli sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Xususan, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy prinsiplarning Konstitutsiyamizda, qator qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgani ularning izchil rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish imkonini berdi.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida belgilab qo‘yilganidek, fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Тошкент: Ўзбекистон,2016.-Б. 14.

ko'maklashmoqda. Bu esa nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-texnikaviy hamda iqtisodiy negizini mustahkamlashga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy hamkorlik borasidagi faoliyat "O'zbekiston Respublikasi jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi jamoat fondlari to'grisida"gi qonuni, xususan, O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonuniga<sup>1</sup> binoan tartibga solingan. Ushbu Qonun nodavlat notijorat tashkilotlarining, shuningdek, xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlarining, xalqaro hamda chet el nodavlat notijorat tashkilotlari vakolatxonalarini va filiallarining O'zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

Nodavlat notijorat tashkiloti - jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir.<sup>2</sup>

Nodavlat notijorat tashkilotlarining alohida ijtimoiy foydali dasturlariga davlat ko'mak ko'rsatishi mumkin.

Davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatiga aralashishiga, xuddi shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotining davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat organlari bilan o'zaro munosabatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni qabul qilish;

---

<sup>1</sup> "O'zbekiston Respublikasining Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil № 5.115-modda.

<sup>2</sup> "O'zbekiston Respublikasining Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil № 5.115-modda.

2) nodavlat notijorat tashkilotlarini ro`yxatga olish (qayta ro`yxatga olish), ularning faoliyat ko`rsatishi va faoliyatini tugatish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratib berish;

3) nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy foydali dasturlarini ro`yobga chiqarishga ko`maklashish;

4) nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o`zaro ijtimoiy hamkorlik;

5) nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish.

Nodavlat notijorat tashkiloti qonun hujjatlariga muvofiq xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlariga kirishi, ular bilan to`g`ridan to`g`ri xalqaro aloqalar o`rnatishi, hamkorlik to`g`risida tegishli bitimlar tuzishi mumkin.

Fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini ta'minlashda, ularning rolini kuchaytirishda «Ijtimoiy sheriklik to`g`risida»gi qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

«Ijtimoiy sheriklik to`g`risida»gi qonun loyihasi O`zbekiston Prezidentining 2011 yil 14 yanvardagi farmoyishi bilan tasdiqlangan komissiya tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu komissiya tarkibining qariyb yarmini nodavlat sektori vakillari tashkil etgani, qonun nodavlat notijorat tashkilotlar manfaatlarini aks ettirishga yo`naltirilganining dalilidir. Loyihani ishlab chiqishda eng avvalo ijtimoiy sheriklik sohasidagi huquqni qo`llash amaliyoti, bu boradagi milliy qonunchilik, umume'tirof etilgan prinsiplar va xalqaro huquq normalari hamda xorijiy mamlakatlar tajribasi o`rganildi.

O`rganish natijalari yurtimizda davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan munosabatlariga doir masalalar yuzdan ortiq normativ-huquqiy hujjatda mustahkamlanganini ko`rsatdi. Masalan, qarorlar qabul qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarning ishtiroki masalasi «O`zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to`g`risida»gi, «Ekologik nazorat to`g`risida»gi va boshqa qator qonunlarda o`z aksini topgan.



Ko'pgina xorijiy mamlakatlarda ham davlat bilan nodavlat sektorning o'zaro munosabatlari turli qonun hujjatlari bilan yoki hukumat va fuqarolik sektori hamkorligi to'g'risidagi bitimlar doirasida tartibga solingan. Biroq hatto rivojlangan demokratik davlatlarda ham davlatning nodavlat notijorat tashkilotlar bilan sherikligini va uni amalga oshirish mexanizmini belgilab beruvchi yagona qonun hujjati mavjud emas.

«Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi qonun 5 bob va 30 ta moddadan iborat bo'lib, 1-bob umumiy qoidalarga bag'ishlangan. Ushbu bobda qonunning maqsadi, ijtimoiy sheriklikning tushunchasi, sub'yektlari, asosiy prinsiplari va sohalari ochib berilgan.

Xususan, qonunning 3-moddasida ijtimoiy sheriklikka quyidagicha ta'rif berilgan: «Ijtimoiy sheriklik – davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning xuquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir»<sup>1</sup>.

Qonunga muvofiq ijtimoiy sheriklikning sub'yektlari sifatida bir tomondan davlat organlari, ikkinchi tomondan esa nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ishtirok etadilar.

Qonunning 2-bobi ijtimoiy sheriklikning asosiy shakllari va ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi. Unda ijtimoiy sheriklikning asosiy shakllari sifatida:

– ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki;

– nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari vakillarining davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlari faoliyatida ishtirok etishi;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi qonuni//lex.uz

- ijtimoiy sheriklik sub'yektlari tomonidan birgalikda tadbirlar, maslahatlashuvlar va muzokaralar o'tkazish;
- ijtimoiy sheriklik sub'yektlari tomonidan bitimlar va shartnomalar tuzish, birgalikdagi loyihalar va rejalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- ijtimoiy sheriklik sub'yektlari o'rtasida o'zaro qo'llab-quvvatlash, axborot almashish kabilar belgilanib, ularni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari ko'rsatilgan.

3-bob ijtimoiy sheriklikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalasiga bag'ishlangan. Unda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning turlari ko'rsatilib, ular orasida nodavlat notijorat tashkilotlarni va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini mulkiy, axborot, maslahat, tashkiliy va o'quv-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash masalalari aks ettirilgan. Masalan, 13-moddada ijtimoiy sheriklik sohasida nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shartnoma asosida davlat mulki tekin yoki imtiyozli shartlarda vaqtincha foydalanishga berilishi mumkinligi belgilangan. Bu esa davlat tomonidan nodavlat sektorga beriladigan salmoqli va muhim mulkiy ko'makdir. Ayniqsa, doimiy ish joyiga (bino, ofis) ega bo'lmay, sarson bo'lib yurgan nodavlat notijorat tashkilotlar uchun bu ko'makning ahamiyati beqiyos.

Bundan tashqari, qonunning ushbu bobida Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi va ushbu fond mablag'larini boshqarish bo'yicha parlament komissiyasiga o'xshash tuzilmalarni joylarda ham tuzish nazarda tutilgan..

Xususan, qonunning 17 va 18-moddalariga muvofiq Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzurida nodavlat notijorat tashkilotlarni va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlarini hamda ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyalarini tuzish, shuningdek, ularning vazifalari belgilangan.

Ta'kidlash lozimki, qonunning mazkur bobida davlat subsidiyasi, davlat granti, davlat ijtimoiy buyurtmasi va ularni berish tartibi mustahkamlandi.

Ushbu masalada yana bir yangilik shuki, endilikda davlat granti va davlat ijtimoiy buyurtmasi nafaqat Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi tomonidan, balki joylarda tashkil etiladigan jamoat fondlari orqali ham berilishi belgilandi. Bu esa uzoq tumanlarda joylashgan nodavlat notijorat tashkilotlarning davlat iqtisodiy ko'magini olish uchun markazga kelib-ketish bilan bog'liq sarf-xarajatlari va vaqtlarini tejash imkonini beradi.

Qolaversa, grant tanlovlarining joylarda tashkil qilinishi mahalliy davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlik qilishga qiziqishini orttiradi. Ularning fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan ko'tarilayotgan turli xil muammolardan xabardor bo'lib borishiga va muammolarni birgalikda hal etish choralari ko'rishiga yordam beradi.

Qonunning 4-bobida ijtimoiy sheriklik sub'yektlarining huquq va majburiyatlari sanab o'tilgan. E'tiborlisi shundaki, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining huquqlari davlat organlarinikiga nisbatan qariyb ikki baravar ko'p, majburiyatlari esa ikki baravar kam qilib belgilangan.

Masalan, 23-moddada nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning turli masalalari bo'yicha tashabbuslar bilan chiqish, davlat organlariga takliflar kiritish huquqi berilgan bo'lsa, 26-moddada bunday tashabbus va takliflarni ko'rib chiqish davlat organlarining majburiyati sifatida belgilangan.<sup>1</sup>

Qonunning oxirgi 5-bobida yakunlovchi qoidalar berilgan. Ushbu bob asosan qonunchilik texnikasi va amaliyotidan kelib chiqib kiritilgan bo'lib, nizolarni hal etish, ijtimoiy sheriklik to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik, qonun hujjatlarini ushbu qonunga muvofiqlashtirish hamda qonunning kuchga kirishi masalalarini tartibga soladi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi qonuni//lex.uz

Davlat organlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini ularning roziligiga ko'ra jalb etishi mumkin.

Davlat organlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda manfaatdor nodavlat notijorat tashkilotlaridan va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan takliflar to'plashni amalga oshiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jalb etgan holda davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Qonun hujjatlarida ayrim nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari uchun davlat tomonidan subsidiyalashning boshqacha tartibi ham nazarda tutilishi mumkin.

Davlat granti ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari, shuningdek jamoat fondlarining mablag'lari hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga ularning buyurtmalari bo'yicha tanlov asosida beriladigan pul mablag'lari va moddiy resurslardir.

Davlat grantlarini ajratish Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlari orqali amalga oshiriladi.

Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini

qo‘llab-quvvatlash jamoat fondlari davlat grantini taqsimlash maqsadida grant tanlovlarini tashkil etadi.

Grant tanlovlarida ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni taqdim etgan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ishtirok etishga haqlidir.

Grant tanlovlariga taqdim etilgan loyihalarni tanlab olish va g‘oliblarni aniqlash Parlament komissiyasi, jamoat komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat granti ajratilayotganda grant beruvchi va grant oluvchi o‘rtasida grant ajratilganligi to‘g‘risida shartnoma tuziladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga davlat grantlarini ajratish tartibi hamda shartlari Parlament komissiyasi tomonidan belgilanadi.

I.A.Karimov ta'kidlaganidek,- “Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti bo‘lib, bu jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o‘rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. Yoki boshqacha qilib aytganda, bu - "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish demakdir. Hammamizga ayonki, bu yo‘nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq ko‘p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o‘tkaza borishni taqozo etadi. Buning uchun, avvalambor, davlatning iqtisodiy sohaga, xo‘jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash lozim”<sup>1</sup>.

Davlat ijtimoiy buyurtmasi davlat organi va nodavlat notijorat tashkiloti yoki fuqarolik jamiyatining boshqa instituti o‘rtasida shartnoma tuzish yo‘li bilan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun ishlar bajarish yoki tadbirlar o‘tkazishga doir davlat topshirig‘idan iborat bo‘ladi.

Davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi yoki Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat- notijorat tashkilotlarini va

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari.// Xalq so‘zi, 2002-yil 30-avgust.

fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlari orqali amalga oshiriladi.

Davlat organlari "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy sheriklik sohalari doirasida o'z faoliyatining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari qo'llab-quvvatlashini talab etadigan ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi hamda kelgusi moliya yili uchun davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish to'g'risida Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondiga yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlariga buyurtmalar yuboradi. Buyurtmada davlat organi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari, ishlar bajarish yoki tadbirlar o'tkazishga doir topshiriqning maqsadlari, vazifalari va shartlari ko'rsatiladi.

Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlari davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish bo'yicha tanlov tashkil etadi, nodavlat notijorat tashkilotlaridan va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan tushgan takliflarni umumlashtiradi hamda ularni tegishincha Parlament komissiyasiga, jamoat komissiyalariga kiritadi.

Parlament komissiyasi yoki jamoat komissiyalari tegishincha Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlari tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o'rganib chiqib, davlat ijtimoiy buyurtmalarini berishning maqsadga muvofiqligi va ularning hajmlari to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qiladi, davlat buyurtmachilarining ro'yxatini va ko'rsatilgan mablag'larni ajratish rejalashtirilayotgan faoliyat yo'nalishlarini ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari davlat ijtimoiy buyurtmalari loyihalarini ishlab chiqadi hamda ularni ko‘rib chiqish uchun tegishincha Parlament komissiyasiga, jamoat komissiyalariga taqdim etadi.

Davlat ijtimoiy buyurtmasi berilayotganda davlat ijtimoiy buyurtmasini berish to‘g‘risida buyurtma yuborgan davlat organi va nodavlat notijorat tashkiloti yoki fuqarolik jamiyatining boshqa instituti o‘rtasida shartnoma tuziladi.

Davlat organlari Parlament komissiyasi, jamoat komissiyalari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan davlat ijtimoiy buyurtmalari loyihalarini byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan qo‘shimcha moliyalashtirishni amalga oshirishi mumkin. Bunda qo‘shimcha moliyalashtirish miqdori umumiy moliyalashtirish summasining 20 foizidan oshmasligi lozim.

Davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tartibi va shartlari Parlament komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Ijtimoiy sheriklik sohasidagi tadbirlarni moliyalashtirish:

O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari;

ijtimoiy sheriklik sub’yektlarining o‘z mablag‘lari;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari hisobidan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy sheriklik sohasidagi tadbirlarni moliyalashtirish qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o‘z ustavlariga muvofiq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda o‘z a'zolari va ishtirokchilarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning turli masalalari bo‘yicha tashabbuslar bilan chiqish, davlat organlariga tegishli takliflar kiritish, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor masalalar yuzasidan davlat organlarining qarorlarini ishlab chiqishda ishtirok etish, davlat organlariga axborot olish

to'g'risida so'rovlar bilan murojaat etish, shuningdek o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni tarqatish, ijtimoiy sheriklik masalalari bo'yicha maslahatlashuvlar va muzokaralar o'tkazish haqida tashabbuslar bilan chiqish, bitimlar va shartnomalar tuzish to'g'risida takliflar kiritish, bitimlar va shartnomalarning loyihalarini tayyorlash hamda muhokama qilishda ishtirok etish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar, bitimlar hamda shartnomalar, shuningdek boshqa qo'shma hujjatlarning amalga oshirilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'tkazish huquqiga egadirlar.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'z faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, ijtimoiy sheriklik sohasidagi bitimlar va shartnomalar, dasturlar va loyihalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini, ijtimoiy sheriklik doirasida faoliyatni amalga oshirish chog'ida fuqarolarning manfaatlari va ehtiyojlari hisobga olinishini, ijtimoiy sheriklik doirasida taqdim etilgan pul mablag'lari va boshqa mol-mulkdan maqsadli foydalanilishini ta'minlashi shart.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Davlat organlari ijtimoiy sheriklik sohasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jalb etishga, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan birgalikda ishchi guruhlar hamda komissiyalar tuzishga, shu jumladan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillarining o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha davlat organlari huzuridagi jamoatchilik-maslahat organlari ishida ishtirok etishini ta'minlashga, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan bitimlar hamda shartnomalar tuzishga, birgalikdagi loyihalar va rejalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishga, birgalikdagi tadbirlarni tashkil



etishga qaratilgan maslahatlashuvlar va muzokaralar o'tkazishga, ijtimoiy sheriklik doirasida berilgan davlat pul mablag'laridan va boshqa mol-mulkdan maqsadli foydalanilishi ustidan qonun hujjatlariga muvofiq nazoratni amalga oshirishga haqlidir.

Ayni vaqtda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish zarurati fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yanada oshirishni, demokratik huquqiy davlat qurilishi, ijtimoiy taraqqiyotning bugungi real holati va talabini hisobga olgan holda, siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rnini va rolini kuchaytirishga qaratilgan yangi qarorlar qabul qilishni, inson manfaatlari, aholining xohish-irodasi hamda fikrlarini inobatga olishni taqozo etmoqda.<sup>1</sup>

Davlat organlari ijtimoiy sheriklik sohasida faoliyatning nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni talab qiladigan ustuvor yo'nalishlarini aniqlashi, shu jumladan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan maslahatlashuvlar o'tkazish orqali aniqlashi, nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga ular ijtimoiy sheriklikda ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratishi, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining tashabbuslari hamda takliflarini, shu jumladan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha tashabbuslari hamda takliflarini ko'rib chiqishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishining borishi bo'yicha zarur hollarda jamoatchilik muhokamasini tashkil etishi, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ularni amalga oshirish samaradorligini yuksaltirishga doir takliflarini ko'rib chiqishi, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan oldindan maslahatlashuvlar hamda muzokaralar o'tkazilishini ta'minlashi, ijtimoiy sheriklik sohasidagi bitimlar va shartnomalar,

---

<sup>1</sup> Зиёмухаммдов Б., Исмоилов Ф. Баркамол авлодни вояга етказиш сирлари. –Тошкент: Сано-стандарт, 2011. – Б. 86.

dasturlar hamda loyihalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashi shart.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirishning mustahkam huquqiy asoslari milliy qonunchilik bazasida shaklantirilgan. Ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijtimoiy hamkorlikning namoyon bo'lishi esa ana shu qonun va qonunosti hujatlarga tayanadi.

## **1.2. Ijtimoiy hamkorlikning muhim komponentlari**

Bugun mustaqil O‘zbekiston ijtimoiy plyuralizm, hayotni erkinlashtirish, mulkning turli shakllariga teng huquqlilikni qonuniy kafolatlash yo‘lidan bormoqda. Milliy istiqlol mafkurasining ijtimoiy hamkorlik g‘oyasi turli partiya, din qatlamiga mansub xilma-xil, jamiyat a'zolari qarashlaridagi tabiiy rang-baranglikni uyg‘unlashtiradi va umumiy taraqqiyot manfaatlariga bo‘ysundirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy hamkorlik bu ko‘pgina ma'naviy omillarning majmuasidan tashkil topgan kategoriya bo‘lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko‘rsatayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishdagi birdamligining ko‘rinishidir. Mustaqil O‘zbekistonning rivojlangan, kuchli va qudratli bo‘lishi uchun jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida barqarorlikka ega bo‘lish lozim. Buning uchun milliy qadriyatlar asosida shakllangan birdamlik tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashgan insonlarning o‘zaro hamkorligi o‘ta muhim ma'no kasb etadi. Bu tushuncha qonuniylik, o‘zaro hurmat, tenglik, aloqadorlik, daxldorlik, o‘zaro manfaatdorlik kabi demokratik qadriyatlarni ifoda etar ekan, bu tamoyillar biz qurayotgan jamiyatimiz oldida turgan bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri ekanligini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi.

Mamlakatimizda huquqiy-demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga, nodavlat notijorat tashkilotlar, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirishga alohida e'tibor qaratib kelinayapti. Bu borada huquqiy asoslar yaratilib, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda o‘tkazilgan qo‘shma majlisidagi ”Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” nomli ma'ruzasida: «Fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini taminlashda, ularning

rolini kuchaytirishda «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo'yicha huquqiy normalar ko'zda tutilishi darkor»<sup>1</sup>, – deya ta'kidlagan edi.

O'z-o'zidan ayonki, hayotimizda tobora ko'proq ishlatilayotgan «ijtimoiy hamkorlik» tushunchasini yanada chuqurroq anglash, uning mazmun-mohiyatidan boxabar bo'lish ehtiyoji ham kuchayib bormoqda. Shu bois mazkur tushuncha va uning mohiyati xususida to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Ilmiy-siyosiy adabiyotlarda «ijtimoiy hamkorlik» tushunchasiga turlicha ta'rif berish holatlari uchrab turadi. Ayrim tadqiqotchilar ijtimoiy hamkorlikni ijtimoiy-mehnat ziddiyatlarini bartaraf etish usuli deb bilsa, boshqalari uni murakkab, ko'p tarmoqli ijtimoiy jarayon deb tushunadi.

Fikrlar xilma-xilligiga qaramasdan, bir narsa aniqki, ijtimoiy hamkorlik avvalo odamlar orasidagi o'zaro munosabatlar majmuasidir. Ikkinchidan, bu munosabatlarning uch asosiy sub'yekti mavjud: ish beruvchi, ishchi va davlat. Uchinchidan, bunday munosabatlar ob'ektini mehnat sharoiti, daromadlar darajasi, sub'yektlarning ijtimoiy ahvoli, ularning ishlab chiqarilgan mahsulotni taqsimlashdagi o'rni, roli va huquqlari tashkil etadi. Ijtimoiy hamkorlikning bosh maqsadi deya uning asosiy sub'yektlarining manfaatlarini hisobga olish va muvofiqlashtirishni aytish mumkin.

Ijtimoiy hamkorlikning paydo bo'lishi va rivojlanishi ob'ektiv zaruriyatdir. Bu zaruriyat asosiy sub'yekt bo'lgan ish beruvchilar va mehnatkashlar o'z manfaatlari bir-birlaridan ayro holda, hamkorliksiz amalga oshirilmasligi bilan bog'liqdir. Zero, ular ishlab chiqarish jarayonida birlashmasa, hamkorlik qilmasa, ish beruvchi

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси.-Тошкент:Ўзбекистон,2010.-Б. 34.

foйда ololmaydi, mehnatkash esa kun ko‘rish vositasidan mahrum bo‘ladi. Demak, sub’yektlarni umumiy manfaat birlashtirib turadi.

Tarixda hamkorlik munosabatlari oson kechmagan, ko‘plab xatolar, adashishlar ham sodir bo‘lgan. Ularni tahlil etishga o‘tishdan oldin bir narsani alohida qayd etmoqchimiz: ijtimoiy hamkorlikning bosh maqsadi ijtimoiy kelishuvga, demak, tinchlik-osoyishtalik, barqarorlikka erishishdir.

O‘zbekistonda yuz berayotgan demokratik yangilanishlar inson omiliga yangicha munosabatni shakllantirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, Islom Karimov tomonidan «barcha islohotlarimizning bosh yo‘nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili va mezoni»<sup>1</sup>ning ustuvor vazifa sifatida ko‘rsatilishi davr talablariga hamohang bo‘ldi.

Shubhasiz, ijtimoiy hamkorlik prinsiplarini amaliyotga tatbiq etish – murakkab vazifa. Bu jarayon o‘zingizning manfaatlaringizni hamkoringizniki bilan teng hisobga olishni taqozo etadi. Bu oson emas. Bunday hamkorlikka erishish esa zalvorli natijalarga olib keladi: jamiyatning qutblarga bo‘linishi barham topadi, jarayonning barcha ishtirokchilarida faollik oshadi, siyosiy va ijtimoiy barqarorlik kuchayadi, taraqqiyot uchun yetarli sharoit yaratiladi.

Ijtimoiy hamkorlikning tarkibi va mexanizmlari haqida so‘z yuritganda uning jamiyat ijtimoiy hayoti bilan aloqadorligini unutmazlik lozim.

Ijtimoiy hamkorlikning asosiy natijasi jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikdir. Bu maqsadga o‘z-o‘zidan erishilmaydi.

Birinchi dan, hamkorlik sub’yektlarini aniq ajratib olish zarur. Tarixiy nuqtai nazardan dastlabki hamkorlik sub’yektlari ikki tomonni tashkil etardi: ishchi va ish beruvchi (ishlab chiqarish vositasi egalari). Bunday ikki tomonlama hamkorlik keyinchalik «bipartizm» nomini oldi. Shundan so‘ng hamkorlar tarkibi sezilarli darajada o‘zgardi, chunki muzokaralar jarayonida davlat ham ishtirok eta boshladi. Natijada yuzaga kelgan uch tomonlama hamkorlik «uchpartizm» deb nomlandi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma‘rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003. – B. 32..

Uch tomonlama kelishuv modeli Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) konvensiyasida 144-raqam bilan belgilab qo'yilgan. Mazkur konvensiyaga ko'ra davlatlar ham o'zaro ijtimoiy hamkorga aylanadilar va ishchilar hamda ish beruvchilar uyushmalari bilan bir qatorda umummilliy hamkorlik-kelishuv shartnomalarini imzolaydilar.

Nihoyat, ijtimoiy hamkorlik sub'yektlari tarkibi yanada murakkablashdi – ko'p darajali hamkorlik joriy etildi. Bu esa uchpartizm prinsipiga nafaqat umummilliy darajada, balki tarmoq va korxonada ham amal qilinishi lozimligini bildirardi. Bu shundan dalolat beradiki, deylik, korxonada miqyosida shartnoma tuzilganida hamkorlar tarmoq shartnomasi mazmun-talablarini hisobga olishlari joiz, tarmoq shartnomasi qabul qilinayotganida esa ijtimoiy hamkorlik haqidagi umummilliy shartnoma talablariga rioya qilishlari talab etiladi.

Ikkinchidan, hamkorlikning yana bir tarkibiy qismini uning ob'ektlari tashkil etadi. Umuman olganda, ijtimoiy hamkorlik alohida tizim sifatida sub'yektlardan tashqari hamkorlikka erishilgan ob'ektlarning muayyan tarkibini ham qamrab oladi.

Ijtimoiy hamkorlik tizimining bugungi bosqichidagi uchinchi element unga erishishning strategiya va taktikasidir. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy maqsadga erishishning uzoq muddatga mo'ljallangan yo'nalishini, ya'ni strategiyani ko'zda tutishni hamda unga erishishning taktikasini anglatadi.

Ijtimoiy hamkorlik tizimining to'rtinchi elementi ularning mexanizmidan iborat. Bu tarkibiy qism shunchalar muhim va o'ziga xoski, alohida ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Nihoyat, zamonaviy ijtimoiy hamkorlik tizimining beshinchi elementi sifatida hamkorlarning madaniyati va axloqini qayd etib o'tamiz. Bu tushunchalar ortida hamkorlarning bir-biriga hurmat bilan qarashi, halolligi, ishonchi, yuksak mas'uliyati yotadi. Bu sifatlarsiz jamiyatda haqiqiy hamkorlikni amalga oshirib bo'lmaydi.

Yuqorida sanab o‘tilgan elementlar bir tizimga birlashgan holdagina hamkorlikning bosh maqsadi bo‘lgan ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni ta‘minlay oladi.

Ko‘rib chiqilayotgan mexanizmning bosh elementi tomonlar o‘rtasidagi muzokara jarayonidir. Bu shu qadar muhimki, qolgan elementlar o‘z mohiyatiga ko‘ra faqat unga xizmat qilib, samaradorligini oshiradi, xolos.

Mexanizmning keyingi elementi hamkorlarning pozitsiyalarini aniqlash va muvofiqlashtirish texnologiyasidir. Bunga misol qilib hamkorlar manfaati va munosabatini aniqlashga xizmat qiladigan «nuqta»larni topish uchun maxsus komissiyalar tuzishni sanab o‘tish mumkin.

Mexanizmning yana bir muhim elementi – hamkorlarning umumiy shartnomaga kiritadigan talab-takliflarini baholash va tahlil qilish maqsadida o‘tkaziladigan ekspertizadir. Nihoyat, bu mexanizmda uning samaradorligini ta‘minlab turish uchun arbitraj vazifasini bajaradigan element ham o‘z o‘rnini topishi kerak.<sup>1</sup>

Ijtimoiy hamkorlikda uning huquqiy doirasini belgilab beradigan qonunlar va boshqa me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish ham katta ahamiyatga ega.

Albatta, ushbu qonun mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari rolini kuchaytirish bo‘yicha o‘tkazilayotgan keng ko‘lamli ishlar samaradorligini oshirishga, katta ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlar va qonun hujjatlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish jarayonida aholining keng qatlamlari manfaatlarining har tomonlama hisobga olinishiga xizmat qilishi shubhasizdir.

Davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ijtimoiy sheriklik sub’yektlaridir.

Ijtimoiy sheriklikning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonunga bo‘ysunish;
- teng huquqlilik;
- ochiqlik va shaffoflik;

---

<sup>1</sup> Qirg‘izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar.-Toshkent:Sharq, 1998 –B. 38.

hammaboplik;

mustaqillik;

xolislik;

o‘zaro hurmat, manfaatlarning inobatga olinishi va mas'uliyat;

majburiyatlar qabul qilishning ixtiyoriyligi.

Ijtimoiy sheriklik quyidagi sohalarda amalga oshirilishi mumkin:

- aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qo‘llab-quvvatlash va uning ijtimoiy faolligini oshirish;
- aholining bandligini ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, fermerlikni rivojlantirish;
- atrof muhitni, aholining sog‘lig‘ini muhofaza qilish va sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish;
- har tomonlama barkamol va sog‘lom yosh avlodni shakllantirish, yoshlarga bilim berish, ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va kasbga yo‘naltirish;
- onalik va bolalikni, shuningdek xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy hayotida to‘laqonli ishtirok etishini ta'minlash, sog‘lom oilani shakllantirish;
- fan, ta'lim, axborotlashtirish, madaniyat va sportni rivojlantirish;
- aholining huquqiy bilimlari, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash;
- millatlararo, madaniyatlararo totuvlik va fuqarolar totuvligi g‘oyalarini mustahkamlash, ko‘p asrlik, an'anaviy ma'naviy-axloqiy hamda tarixiy-madaniy qadriyatlarni tiklash va saqlash;
- iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish.

Ijtimoiy sheriklik qonun hujjatlariga muvofiq boshqa sohalarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Ijtimoiy sheriklikning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:



- nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;
- nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;
- nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari vakillarining davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlari faoliyatida ishtirok etishi;
- ijtimoiy sheriklik sub'yektlari tomonidan birgalikda tadbirlar, maslahatlashuvlar va muzokaralar o'tkazish;
- ijtimoiy sheriklik sub'yektlari tomonidan ijtimoiy sheriklik to'g'risida bitimlar va shartnomalar (bundan buyon matnda bitimlar va shartnomalar deb yuritiladi) tuzish, birgalikdagi loyihalar va rejalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- ijtimoiy sheriklik sub'yektlari o'rtasida o'zaro qo'llab-quvvatlash, axborot almashish.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha tashabbuslar bilan chiqishda, tegishli takliflar va loyihalarni tayyorlashda ishtirok etishga, shuningdek ularni ko'rib chiqish uchun vakolatli davlat organlariga kiritishga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik ekspertizasini o'tkazishda, ishlab chiquvchilar bilan kelishuvga ko'ra, ularning jamoatchilik muhokamasini o'tkazish tashabbusi bilan chiqishda ishtirok etishga, loyihalar yuzasidan takliflarni ishlab chiqishga, ularni to'plashni va umumlashtirishni amalga oshirishga, shuningdek ushbu takliflarni ko'rib chiqish uchun vakolatli davlat organlariga kiritishga, birgalikda tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarida belgilangan vazifalarni hal etishga

qaratilgan loyihalarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish yuzasidan davlat organlariga takliflar kiritishga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlarning ro'yobga chiqarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga, uning yakunlari bo'yicha takliflar tayyorlash hamda ularni vakolatli davlat organlariga kiritishga haqlidir.

Davlat organlari nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining tashabbuslari hamda takliflarini ko'rib chiqishi shart.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, ularning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish va ta'minlash, boshqa sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal etish maqsadida tashkil etiladigan davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar hamda jamoatchilik-maslahat organlari faoliyatida belgilangan tartibda ishtirok etishga haqlidir.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek ushbu loyihalarga doir takliflarni tayyorlashga, ularni davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlarining majlislarida ko'rib chiqish uchun kiritishga, davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlariga ularning vakolatiga kiritilgan masalalarni ko'rib chiqish, mazkur masalalarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish to'g'risidagi takliflar bilan murojaat etishga, oldindan kelishuvga ko'ra davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlarining majlislarida ularning vakolatiga kiritilgan masalalar yuzasidan o'z vakili orqali so'zga chiqishga haqli xisoblanadi.

Ijtimoiy sheriklik sub'yektlari konferensiyalar, davra suhbatlari, seminarlar, jamoatchilik muhokamalari, hasharlar, festivallar, sotsiologik so'rovlar shaklida va boshqa shakllarda birgalikda tadbirlar, bitimlar va shartnomalar tuzishga, birgalikdagi loyihalar hamda rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga,

birgalikda tadbirlar tashkil etishga qaratilgan maslahatlashuvlar va muzokaralar o'tkazishi mumkin.

Maslahatlashuvlar va muzokaralar birgalikdagi uchrashuvlar va jamoatchilik muhokamalarini tashkil etish, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillarining fikrlarini so'rash, ular ishtirokida davlat organlari huzurida ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlari tuzish yo'li bilan o'tkaziladi.

Ijtimoiy sheriklik sub'yektlari bitimlar va shartnomalar tuzishi, shuningdek birgalikdagi loyihalar va rejalarni ishlab chiqishi hamda amalga oshirishi mumkin.

Bitimlar taraflarning o'z zimmlariga olgan o'zaro majburiyatlaridan iborat bo'lib, ular doirasida taraflar birgalikdagi faoliyatning maqsadlari va vazifalarini, yo'nalishlarini aniqlaydi, ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish shakllarini ko'rsatadi.

Shartnomalar ishlar bajarishni yoki xizmatlar ko'rsatishni, shuningdek ijtimoiy sheriklik sub'yekti tomonidan moddiy, shu jumladan moliyaviy qo'llab-quvvatlashda ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutishi mumkin.

Birgalikdagi loyihalar va rejalarni, bitimlar hamda shartnomalarni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishga, gumanitar masalalarni hal etishga, aholi turli qatlamlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini belgilaydi.

Ijtimoiy sheriklik sub'yektlari o'z vakolatlari doirasida o'quv-uslubiy, axborot, maslahat va tashkiliy jihatdan o'zaro qo'llab-quvvatlaydi.

Ijtimoiy sheriklik sub'yektlari o'z tasarrufida bo'lgan va hamkorlik predmetiga taalluqli axborotni yozma so'rovlar asosida bir-biriga taqdim etadi.

Yozma so'rovga javob, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, imkoni boricha qisqa muddatda, lekin so'rov olingan sanadan e'tiboran o'n besh kundan kechiktirmay berilishi kerak.

Ijtimoiy sheriklik sub'yektlari davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni o'z ichiga olgan axborotni taqdim etishi mumkin emas.

Jamiyatni demokratlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilish bugungi kun zamon talablari va munozaralaridan biri bo'lib qolmoqda. Zero, mamlakatni tubdan isloh qilish va yangilash jarayoni eng avvalo, millat ongi va tafakkurini, intellektual bilim doirasini shakllantirish bilan bir qatorda jamiyatning barcha sohalarini jumladan, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini, mamlakat iqtisodiyotini va iqtisodiy, ijtimoiy hamda huquqiy asoslarga asoslangan bozor iqtisodiyoti munosabatlarini takomillashtirish va yuksaltirishni kuzda tutadi. Ushbu jarayon mamlakatimiz taraqqiyotining yanada yuksalishiga va xalq hayotining tobora faravonlashuviga olib keladi. Biz erishgan ulkan marralarning eng muhimi eski tizimdan butunlay voz echib, mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirish yo'lidan dadil borayotganimiz va bu jarayonning hech qachon ortga qaytmaydigan qat'iy va izchil tus olganligidir<sup>1</sup>.

Ijtimoiy sheriklikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash turlari quyidagilardan iborat:

- nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini mulkiy, axborot, maslahat, tashkiliy va o'quv-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga moddiy yordam ko'rsatayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozlar berish;
- nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga davlat subsidiyalari, grantlari va ijtimoiy buyurtmalari berish, ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni moliyalashtirish.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish- taraqqiyotimizning muhim omilidir.// Ishonch. 2010-yil 8-dekabr.

Ijtimoiy sheriklik sohasida nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shartnoma asosida davlat mulki tekin yoki imtiyozli shartlarda vaqtincha foydalanishga berilishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga vaqtincha foydalanishga berilgan davlat mulkidan maqsadli foydalanilishi kerak.

Ijtimoiy sheriklik sohasida nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini axborot, maslahat, tashkiliy va o'quv-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi:

- ijtimoiy sheriklik sohasidagi axborotdan erkin foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ijtimoiy sheriklikni amalga oshirishdagi ishtiroki masalalariga doir uslubiy materiallarni ishlab chiqish hamda nashr etish;
- ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishning dolzarb masalalari bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish hamda bilim beruvchi tadbirlar, uslubiy maslahatlar, ilmiy-amaliy seminarlar va konferensiyalar o'tkazish;
- ijtimoiy sheriklik sohasidagi tadbirlarni tashkil etishda ko'maklashish.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy hamkorlik murakkab ijtimoiy harayon bo'lib, u o'zaro faoliyat ishtirokchilarining ikki tomonlama manfaatlarini ifodalashi zarur. Ijtimoiy hamkorlikning kamponent o'z navbatida ana shu oliy maqsadni ifodalaydi va ijtimoiy-madaniy faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi. Ulardan samarali foydalanish esa ijtimoiy hamkorlik sub'yektlarining kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi.

## **II. BOB. IJTIMOIIY-MADANIY HAYOTDA IJTIMOIIY HAMKORLIKNING NAMOYON BO"RLISHI VA JAMIYAT TARAQQIIYOTI**

### **2.1. Ijtimoiy hamkorlik jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muhim sub'yekt sifatida**

Har qanday davrda jamiyatda kechayotgan ijtimoiy jarayonlar jamiyat a'zolari manfaatlarini ifodalagandagina ijtimoiy taraqqiyotning asosi bo'la oladi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar va uning ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi shubxasiz O'zbekistonning nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini taminlamoqda, balki uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga xizmat qilmoqda.

Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda.<sup>1</sup>

2008 yil 3 iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil qilinishi hamda Jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha parlament komissiyasining tuzilishi ijtimoiy sheriklikning rivojlanishida yana bir muhim amaliy qadam bo'ldi.

So'nggi uch yil ichida turli ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan fuqarolik jamiyati institutlariga 11 mlrd. so'mdan ortiq mablag' ajratildi. Mamlakatimiz rahbari

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi-Toshkent: O'zbekiston. 2010. –B. 42.

tomonidan belgilangan mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda 2010 yilda Jamoat fondi tomonidan bir qator yo‘nalishlar bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha shartnomalar tuzilgan.

Mamlakatda demokratik o‘zgarishlarni yanada rivojlantirishga hamda bunda nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtirok etishiga ko‘maklashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tuzildi.

Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi:

O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetidan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan olinadigan mablag‘larni jamlaydi, bu mablag‘lar nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini rivojlantirishni rag‘batlantirish hamda qo‘llab-quvvatlashga, ijtimoiy, iqtisodiy, gumanitar masalalarni hal etishda ularning ishtirok etishiga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish uchun taqsimlanishini tashkil etadi;

mablag‘larni keyinchalik nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlashga taqsimlash uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondlariga yo‘naltiradi;

nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularga huquqiy maslahat, tashkiliy, texnik jihatdan va boshqa xil yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq dasturlar hamda loyihalarni amalga oshirishda ko‘maklashadi.

Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining faoliyatini tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash

jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha parlament komissiyasi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini rivojlantirish hamda ularning mamlakatda demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishda va jamiyatni erkinlashtirishda ishtirok etishiga ko'maklashish maqsadida tuziladi.

Parlament komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, Senati a'zolari, adliya va moliya vazirliklarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillari orasidan rais, uning o'rinbosari, mas'ul kotib va komissiya a'zolaridan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Parlament komissiyasi quyidagi vazifalarni ado etadi:

- Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi mablag'larining nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash uchun taqsimlanishini tashkil etadi, nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining va davlat organlarining takliflarini o'rganish asosida aniq ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishga, fuqarolarning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga qaratilgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlar hamda loyihalarni moliyalashtirish dasturlarini ishlab chiqadi;
- Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi mablag'larini taqsimlashda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlaydi, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini rivojlantirish hamda ular faoliyatining samaradorligini oshirish, ularning o'tkazilayotgan sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlarda, demokratik qadriyatlarning, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishini ta'minlashda ishtirok etishi masalalarini muhokama qilishga jamoatchilikni jalb etadi;
- joylardagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash uchun mablag'larning hajmlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi



ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyalarining buyurtmalari asosida aniqlaydi hamda taqsimlaydi, ushbu komissiyalar faoliyatiga uslubiy rahbarlikni ta'minlaydi;

- Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishi, ushbu jamoat fondi tomonidan moliyalashtiriladigan dasturlar hamda loyihalar ustidan nazoratni amalga oshiradi, o'z majlislarida moliyalashtirilayotgan dasturlar hamda loyihalar amalga oshirilishining borishi va natijalari to'g'risida nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining hisobotlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborotini eshitadi, ijtimoiy sheriklikni yanada rivojlantirishga doir zarur tavsiyalarni ishlab chiqadi va topshiradi;
- ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlar va loyihalarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining davlat organlari bilan hamkorligini chuqurlashtirishga, ijtimoiy hayotni demokratlashtirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining rolini kuchaytirish jarayonlariga ko'maklashadi;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasini, jamoatchilik ekspertizasini tashkil etishda davlat organlariga yordam ko'rsatadi, mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning mohiyati va ahamiyatini aholiga tushuntirish bo'yicha tizimli ishlar olib boradi;
- ijtimoiy sheriklik sohasida ko'rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi va ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- bajarilgan ishlar to'g'risida har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga va Senatiga axborot taqdim etadi;
- o'z faoliyati to'g'risida jamoatchilikni xabardor qiladi.

- Parlament komissiyasi Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining vasiylik kengashi vazifasini bajaradi.

Parlament komissiyasining faoliyatini tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan belgilanadi.

Bugungi ijtimoiy hayot ijtimoiy va siyosiy faollikni yanada oshirishni talab etmoqda. Faqat xalq irodasiga, fuqarolarning o‘tkazilayotgan islohotlardagi faol ishtirokiga, ularning yurtimizda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarni tushunishi va qo‘llab-quvvatlashiga tayangan holda, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishning maqsad va vazifalarini ro‘yobga chiqarish mumkin. Shuningdek, hokimiyatning vakillik va ijro etuvchi organlarini shakllantirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining faol ishtiroki uchun zarur tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratish lozim.<sup>1</sup>

Ayni shu maqsadda, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining tashabbuslarini rivojlantirish hamda rolini kuchaytirish, shuningdek ularning joylarda sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal etishdagi ishtirokini rag‘batlantirish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq jamoat fondlari tuzilishi mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash yuzasidan jamoat fondlari quyidagilarni amalga oshiradi:

- mahalliy byudjetdan va Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondidan olinadigan mablag‘larni, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalarini, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag‘larni jamlaydi;
- jamlangan mablag‘lardan nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining faoliyatini, ularning

---

<sup>1</sup> Nazarov Q. umumiy tahriri ostida. Fuqorolik jamiyati institutlari faoliyatida ish olib borishning samarali usul va uslublaridan foydaanish” mavzusidagi seminar –trening materiallari. Toshkent. 2009. - B. 70.

joylardagi sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal etishdagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash uchun foydalanilishini tashkil etadi;

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishga, gumanitar masalalarni hal etishga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ko‘maklashadi.

Jamoat komissiyalari tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining deputatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklarining, adliya va moliya organlarining, shuningdek boshqa davlat organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillari orasidan rais, uning o‘rinbosari, mas'ul kotib va komissiya a'zolaridan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Jamoat komissiyalari nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlar hamda loyihalarni amalga oshirishdagi hamkorligini chuqurlashtirishga ko‘maklashadi, ularning takliflarini o‘rganish asosida ijtimoiy sheriklikning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlaydi, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining joylarda ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy masalalarni hal etishga qaratilgan sotsial hamda ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlari va loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga, ularni amalga oshirish uchun mablag‘larning zarur hajmlarini aniqlashga doir tavsiyalar ishlab chiqadi hamda tegishli buyurtmalarni Parlament komissiyasiga yuboradi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondlari mablag‘larining samarali taqsimlanishini tashkil etadi, Shuningdek ulardan maqsadli foydalanilishi ustidan monitoringni amalga oshiradi, tegishli hududda ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini hal etishda ijtimoiy sheriklik

holatining monitoringini va baholanishini amalga oshiradi, zarur hollarda, mazkur yoʻnalishdagi ishlarni takomillashtirishga doir aniq tadbirlarni ishlab chiqadi,

ijtimoiy sheriklik sub'yektlari oʻrtasida manfaatlarni kelishib olishga va birgalikdagi faoliyatning ustuvor yoʻnalishlarini ishlab chiqishga qaratilgan maslahatlashuvlar hamda muzokaralarni tashkil etadi va oʻtkazadi, ular oʻrtasida bitimlar va shartnomalar tuzishga, shuningdek ularning ijro etilishiga koʻmaklashadi, ijtimoiy sheriklik sohasida koʻrib chiqilayotgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi va ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi va oʻz faoliyati toʻgʻrisida jamoatchilikni xabardor qiladi.

Jamoat komissiyalari Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash jamoat fondlarining vasiylik kengashi vazifasini bajaradi.

Jamoat komissiyalari oʻz faoliyatini tegishincha Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan tasdiqlanadigan reglamentga muvofiq amalga oshiradi.

Jamoat komissiyasining namunaviy reglamenti Parlament komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi. Jamoat komissiyalari faoliyatini tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat subsidiyasi sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatni amalga oshirayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamgʻarmalari mablagʻlari hisobidan beriladigan hamda aniq loyihalar bilan bogʻliq boʻlmagan moliyaviy yoki boshqa moddiy koʻmakdir.

Davlat subsidiyalaridan faqat nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ijtimoiy foydali maqsadlarga erishish uchungina foydalaniladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari davlat subsidiyasini olish uchun Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondiga buyurtmalar bilan murojaat etadi.

Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining buyurtmalarini umumlashtiradi, subsidiyalash hajmlariga doir takliflarni tayyorlaydi hamda ularni Parlament komissiyasiga kiritadi.

Parlament komissiyasi Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o'rganib chiqib, subsidiyalashning maqsadga muvofiqligi va zarur hajmlari to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qiladi.

Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi navbatdagi yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti tasdiqlanganidan keyin Parlament komissiyasiga davlat subsidiyalarini taqsimlashga doir takliflarni taqdim etadi.

Parlament komissiyasi Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining takliflari olinganidan keyin nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga ajratiladigan davlat subsidiyalarining hajmlarini aniqlaydi.

Davlat subsidiyalarini ajratish tartibi va shartlari Parlament komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy munosabatlarning boshqa sohalari kabi huquqiy tartibga solishni talab qiladi, chunki davlatning fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligi uchun qulay huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy sharoitlarning yaratilishiga zarurat tug'iladi.<sup>1</sup>

Ijtimoiy sheriklik munosabatlarini, ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish tamoyillari va mexanizmini tartibga solishga qaratilgan, sog'liqni saqlash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, aholi, ayniqsa yoshlarni ish bilan ta'minlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda muhim ijtimoiy ahamiyatga ega boshqa muammolarni hal etishga qaratilgan davlat dasturlarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokiga

---

<sup>1</sup> Odilqoriyev X.T. O'zbekiston demokratik islohotlar yo'lida. To'plam. Toshkent: JIDU, 2001.-B. 56.

huquqiy asoslar yaratuvchi qonun loyihasi yaratish bugungi kundagi dolzarb masalaga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov 2010 yil 12 noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasida yurtimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik institutlari rolini yanada kuchaytirish fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratlashtirish va mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bo‘yicha o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadimizni ro‘yobga chiqarishda hech bir mubolag‘asiz hal qiluvchi omil ekanini alohida ta’kidlab o‘tdi. Fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish, amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini ta’minlashda, ularning rolini kuchaytirishda “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu qonunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o‘zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo‘yicha huquqiy normalar ko‘zda tutilishi darkor.<sup>1</sup>

Mamlakatimizning chekka hududlarida istiqomat qilayotgan yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish, bolalarni, ayniqsa, qiz bolalarni jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, sog‘lom turmush tarzini aholi, oilalar o‘rtasida keng targ‘ib etishga qaratilgan tanlovlar o‘tkazilishi nazarda tutilayotgani diqqatga sazovor. Bu boradagi ishlarni ijtimoiy sheriklik asosida amalga oshirish ko‘zlangan maqsadga erishishning muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini fuqarolik jamiyati institutlari va davlat tuzilmalari o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish asosida olib borish, fuqarolar turmush darajasini yaxshilash, tadbirkorlikni taraqqiy ettirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga

---

<sup>1</sup> Odilqoriyev X.T. O‘zbekiston demokratik islohotlar yo‘lida. To‘plam. Toshkent: JIDU, 2001.-B. 56.

yordam ko'rsatish, ularning va NNTning shahar, mahalla hamda ko'chalarni obodonlashtirishdagi faolligini kuchaytirish, atrof-muhitni himoya qilish hamda bolalar sog'lig'ini mustahkamlashga yo'naltirilgan tanlovlarga alohida e'tibor qaratilgan. Jamoat fondi va Parlament komissiyasi o'tkaziladigan tanlovlar haqida nodavlat-notijorat tashkilotni xabardor qilish bo'yicha ish boshladi, Birgina 2014-yildagi faoliyat taxlil etilsa, aprel oyining boshlarida mamlakatning barcha hududlarida O'zbekiston nodavlat-notijorat tashkilotlari milliy assatsasiyasi, Fuqarolik jamiyatini shakllanishini monitoring qilish mustaqil institutining joylardagi bo'linmalari, Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi va Parlament komissiyasi vakillari ishtirokida "davra suhbatlari" o'tkazildi. Ayni chog'da "Kelajagi buyuk - sog'lom avlod" mavzuidagi tanlovlaridan biri e'lon qilindi. U "Sog'lom bola yili" Davlat dasturida belgilangan muhim masalalarni hal etishga Nodavlat-notijorat tashkilot va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini keng jalb qilishga qaratilgani bilan muhim ahamiyatga ega. Mazkur grant tanlovlarini tashkil etish va o'tkazishga umumiy mablag'ning 3,8 mlrd. so'mdan ortig'i yoki mo'ljallangan jami mablag'ning 46,3 foizi yo'naltirildi. Ommaviy axborot vositalari tomonidan aholining huquqiy madaniyati hamda ongini yuksaltirish, sog'lom turmush tarzini, ayniqsa, yoshlar orasida targ'ib qilishga, demokratik islohotlarning amalga oshirilishi va fuqarolik jamiyatining barpo etilishi jarayonlarini mustaqil ommaviy axborot vositalarida yoritishga qaratilgan tanlovlar o'tkazilishi alohida yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tilgan. Shu tariqa yil davomida tanlovlar 67 yo'nalishda tashkil etildi. Davlat grantlariga ajratilgan mablag'lar miqdori esa 2013 yildagiga nisbatan 15,8 foiz oshirildi. Shu o'rinda Parlament komissiyasi qarorlariga asosan, nodavlat-notijorat tashkilotining, Ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasida katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni yechishga qaratilgan davlat ijtimoiy buyurtmalarini joylashtirish uchun tanlov e'lon qilinganini qayd etish joiz. Bunga 1,4 mlrd. so'm yoki jami mablag'ning 17,1 foizi miqdorida mablag' ajratildi. Qayd etish kerakki, Jamoat fondi nodavlat notijorat tashkilotlarini rivojlantirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni moliyalashtirishda katta

rol o'ynaydi. Fuqarolarning atrof-muhit muhofazasini ta'minlash, salomatlikni asrash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashdagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, shubhasiz, ushbu yo'nalishdagi Davlat dasturlarining samarali ijro etilishiga xizmat qildi. Muhimi, ijtimoiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalar qo'llab-quvvatlanadi, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati Nodavlat-notijorat tashkilot ishtirokida ro'yobga chiqariladi, shuningdek, "Sog'lom bola yili" Davlat dasturini bajarishda jamoat tashkilotlarining ishtirokini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Albatta, bu kabi sa'y-harakatlar yurtimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari roli yanada oshishiga, ularning kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida hal qiluvchi omilga aylanib borishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda ijtimoiy hamkorlik natijasida jamiyat a'zolari madaniyatning institutsionlashtirilgan tizimiga birlashadilar va uning asnosida jamiyatning madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti yuzaga keladi. Bu o'z navbatida davlatning amalga oshirayotgan ijtimoiy siyosati to'g'ri ekanini ko'rsatadi.



## **2.2. Fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatida ijtimoiy sherikchilik munosabatlarining ahamiyati va jamoatchilik nazorati**

O‘zbekiston Respublikasida boshqaruvning milliy mexanizmi xisoblangan mahalla instituti o‘zining keng imkoniyatlari bilan jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi muhim sub’yektlardan biriga aylangan. “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunda fuqarolar yig‘inlarining qonunlar va boshqa qonunosti hujjatlarining, shuningdek o‘z qarorlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi belgilab qo‘yilgan bo‘lib, jamoatchilik nazorati vakolatlarini mahalliy davlat organlari faoliyati ustida amalga oshirishda, fuqarolar yig‘inlari “yilning har choragida tuman, shahar va viloyat hokimliklari rahbarlarining fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitadi va fuqarolar yig‘inlarining hisobotlar to‘g‘risidagi bayonnomalari tegishli viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga yuboriladi, ular bu bayonnomalarning hisobini yuritadilar, fuqarolarning murojaatlari bajarilishini nazorat qiladilar” deb belgilab qo‘yilgan.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratining amalga oshirilishi o‘z navbatida qonun hujjatlarining ustuvorligini ta'minlashda, ularning amaliyotga to‘liq tadbiiq etilishida, fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishda, ular tomonidan turli xil huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olishda, fuqarolarning ijtimoiy himoyasini takomillashtirishda, tadbirkorlikni rivojlantirishda, sog‘lom raqobat muhitini yaratishda, eng muhimi, fuqarolarning farovon turmush tarzini kuchaytirish tizimini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolar yig‘inlari O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunida berilgan vakolatlardan foydalangan holda, jamoatchilik nazoratini quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirishi mumkin.

Birinchiidan, qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining, shuningdek, o‘z qarorlarining ijro etilishida. Mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazorati yilning har choragida tuman, shahar va viloyat hokimliklari rahbarlarining fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan

hisobotlarini eshitish, ular chiqargan tegishli qarorlarining bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida qonunda belgilangan tartibda tegishli idoralarga taqdimnomalar kiritish orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, hududda kompleks rivojlantirishni ta'minlashda. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahallada xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va oilaviy biznes markaziga aylantirish, o'ziga tegishli bo'lgan hududda ish joylarini yaratish, kasanachilikni taraqqiy toptirish, yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini ixtiyoriylik asosida birlashtirish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish vakolatiga egadirlar. Ularga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kichik korxonalar, sartaroshxonalar, poyabzal ta'mirlash va tikish ustaxonalari, xalq hunarmandchiligi sexlarini va aholiga maishiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa korxonalarni tashkil etish huquqlari berilgandir. Albatta, mazkur vakolatlarni lozim darajada amalga oshirish ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, hududni obodonlashtirish, imoratlar qurish hamda hovlilar va uylar atrofidagi hududlarni orasta saqlash qoidalariga rioya etilishida, shuningdek, ularning sanitariya holatini yaxshilashda. Ushbu yo'nalishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish uchun ularga ko'plab vakolatlar berilganki, bu o'z navbatida mahallani orasta saqlash, tozalikka e'tibor berish, hasharlar tashkil etilib, bir-birlarining og'irini yengil qilish kabi ota-bobolarimizning azaliy urf-odatlarini bilan uyg'unlashib ketgandir.

To'rtinchidan, hududda to'ylar va boshqa marosimlarni o'tkazishda. Xalqimizda «topganing to'ylarga buyursin» degan hikmatli gaplar mavjud bo'lib, ota-bobolarmizdan bizlarga yaxshi to'ylar qilib elga osh tarqatish kabi xayrli ishlar qilish meros sifatida o'tib kelmoqda. Shu asosda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazorati hududda yashaydigan fuqarolarga muqaddas dinimiz, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va an'analarimizning haqiqiy mohiyatini hayotiy, ta'sirchan misollar asosida muntazam tushuntirish ishlarini olib borish, tegishli maslahatlar berish, zamon

talablariga mos, xalqimizning qarashlariga muvofiq keladigan yangi, namunaviy an'analarni tashkil qilish va joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Beshinchidan, pul mablag'larining maqsadli sarflanishida. Bu yo'nalishdagi jamoatchilik nazorati fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'zlari ustidan o'zlari o'rnatadilar. Bunda hududni kompleks rivojlantirish, obodonlashtirish, umumiy foydalanishdagi joylarni ta'mirlash, shuningdek, kam ta'minlangan oilalarning uylari va kvartiralarini ta'mirlashda yordam ko'rsatish uchun aholidan ixtiyoriylik asosida yig'ilgan mablag'lar, shu maqsadda, korxonalar va tashkilotlardan homiylik sifatida berilgan mablag'larning qanchalik darajada maqsadli sarflanishi ustidan ichki nazorat olib borish orqali amalga oshiriladi;<sup>1</sup>

Oltinchidan, xotin-qizlarning manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy hayotdagi, oilada ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi, yosh avlodni tarbiyalash ishidagi mavqeini oshirishda.

Yettinchidan, tegishli hududda jamoat tartibini ta'minlashda, shu jumladan, fuqarolarning kelishi va ketishini hisobga olishni tashkil etishda, o'smirlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish ishidagi, voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishda.

Ma'lumki, jamoatchilik nazorati mamlakatimizda tarixiy ildizlarga ega. Chunonchi, u azal-azaldan mahallalar, oqsoqollar kengashi ko'rinishlarida amal qilib kelgan. Jumladan, har bir oilada ota-onalar tomonidan farzandlar tarbiyasiga befarq bo'lmaslik, ogoh bo'lishlik kabi fazilatlar singdirilgan va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda farzandlarning mas'uliyati ma'lum bir me'yorlar bilan belgilab berilgan. Yoshi ulug' keksalarimizning aytishicha, azal-azaldan biror bir mahallaga notanish kishi mehmon kirib kelsa, unga "Kimsiz?", "Qayerdانسiz?", "Qanday yumush bilan mahallamizda yuribsiz?" kabi savollar berilgan va bu holat jamoat nazorati sifatida namoyon bo'lgan.

Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining o'rnatilishi fuqarolik jamiyati barpo etishning eng muhim shartlaridan biridir. Fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga daxldorlik hissining ortishi hamda har

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonuni //lex.uz

bir davlat xizmatchisining o‘z faoliyati jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonining muhim shartlaridandir. Ya'ni davlat organlari xalqqa o‘z siyosati, harakatlarini tushuntirib berishi, uning oldida hisobot berib borishi lozimdir.<sup>1</sup>

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilayotgan jamoatchilik nazorati natijasida, joylarda islohotlar, Davlat dasturlari ijrosi to‘g‘risida jamoatchilik keng xabardor etilib, aholi manfaatlarini himoyalash hamda mahalliy davlat organlarining fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan mustahkam hamkorligi ta'minlanmoqda.

Umuman, jamoatchilik nazorati bugungi kunda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan u yoki bu qonun talablarining fuqarolar yig‘ini hududida ijrosini jamoatchilik guruhlari tuzib o‘rganish, natijalari bo‘yicha tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlari hisobotlarini eshitish orqali aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish tartibida yoki mahalliy davlat organlari faoliyatiga ko‘maklashish orqali ham amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom avlodni shakllantirish, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha qo‘shimcha choralar to‘g‘risida” 2009 yil 13 apreldagi 1096 - sonli va “2009-2013 yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog‘lom bola tug‘ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida” 2009 yil 1 iyuldagi 1144-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan Davlat dasturlarining ijrosi doirasida respublikamizdagi mavjud 3,5 mingdan ortiq qishloq vrachlik punktlari (oilaviy poliklinikalar) hamda tez tibbiy yordam idoralari rahbarlarining hisobotlari har oyda mahalla fuqarolar yig‘inlarida eshitib kelinmoqda.

Ushbu hisobotlar har chorakda tuman “Mahalla” jamg‘armasi huzurida jamoatchilik vakillari ishtirokida tuman (shahar) miqiyosida ham eshitilib tegishli qarorlar qabul qilinmoqda.

---

<sup>1</sup> Xusanov O. Mustaqil va mahalliy hokimiyat. – Toshkent: Sharq, 1996. –B. 45.

Aholi bandligini ta'minlashda ishlab chiqarish korxonalarini bilan kasanachilik aloqalarini tashkil etish orqali oila daromad manbaining ko'payishiga, aholining ish bilan bandlik darajasini oshirishda amalga oshirilayotgan jamoatchilik nazoratining ahamiyati ham katta bo'lmoqda.

Umuman, jamoatchilik nazorati fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat hokimiyati organlariga u yoki bu qarorlarni qabul qilish bo'yicha murojaatlar qilish, davlat hokimiyati organlari vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha so'rovlarni amalga oshirish, davlat hokimiyati organlari va mahallalar hududlaridagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitish kabi shakllarida yo'lga qo'yilgan.

Bu esa jamoatchilik nazoratining jamiyatda ijtimoiy adolatning qaror topishi, shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o'zaro mas'uliyat va javobgarlikka xizmat qiluvchi asosiy omil bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabridagi qo'shma majlisida mamlakat Prezidenti tomonidan taklif etilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da<sup>1</sup> davlat hokimiyati organlari va boshqaruvining qonun hujjatlarini ijro etish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning samarali huquqiy mexanizmini tashkil etishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunining loyihasini ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Qonunda jamoatchilik nazorati sub'yektlari, nazorat predmeti, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari, huquqiy oqibatlari, shuningdek, mazkur sohadagi qonunlarni ijro etmagan mansabdor shaxslarning javobgarlik shartlari belgilanishi lozim. Bunda davlat va jamiyat qurilishi tizimi sohasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini huquq va vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish dolzarb vazifadir.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси.-Тошкент:Ўзбекистон,2010.

Bugungi kunda “kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” tamoyilining hayotga izchil tatbiq qilinishi natijasida aholining keng qatlamlari ishonchi va qo‘llab-quvvatlashiga sazovor bo‘layotgan fuqarolik jamiyatining turli xil institutlarining shakllanishi va rivojlanishi jarayoni bormoqda. Mazkur jarayonda fuqarolik jamiyati faoliyatini tartibga solish, ularni qo‘llab-quvvatlash, jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda ularning rolini oshirishga qaratilgan 200 dan ortiq qonunchilik hujjatlari qabul qilindi.

Fuqarolik jamiyatining ajralmas qismi bo‘lmish fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda nodavlat notijorat tashkilotlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan ijtimoiy sherikligi masalalari katta ijtimoiy ahamiyatga ega.

Davlatning ijtimoiy sohadagi barcha masalalarni hal etish vazifasini o‘z zimmasiga olishi jamiyatda davlat ishtirokining oshib ketishi, bu sohaga davlat mablag‘larining ko‘p qismi sarflab yuborilishi, fuqarolarning faolligini susaytirib qo‘yish xavfini oshirib yuboradi. Shu sababli, 1) davlatning o‘z vazifalarining bir qismini fuqarolik jamiyati institutlari (fuqarolar yig‘inlari, nodavlat notijorat tashkilotlari)ga o‘tkazishi; 2) fuqarolarning faolligini oshirish orqali fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda uning institutlarini rivojlantirish; 3) biznesning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish, byudjet harajatlarini kamaytirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi muammolarni hal etishda mazkur davlat, nodavlat va notijorat va xususiy sektorning hamkorligiga ehtiyoj tug‘iladi.

Ijtimoiy sheriklik – bu uchta sektorning manfaatlarini muvofiqlashtirish va kelishuvga erishish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda o‘zaro hamkorligidir.<sup>1</sup>

Davlat, tadbirkorlik sub’yektlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy sherikligi muayyan ijtimoiy muammoni yechishda intellektual potensialni, inson, moddiy-texnik va moliyaviy resurslarni birlashtirish imkonini beradi.

---

<sup>1</sup> “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlarining fakultet sardorlari uchun o‘tkazilgan seminar-trening tarqatma materiallari. –Toshkent: O‘quv uslubiy markaz, 2015. –B. 45.

Ijtimoiy sheriklikning muhim xususiyatlaridan biri – bu ijtimoiy sheriklik taraflarining huquq va majburiyatlarga rioya qilish haqidagi o‘zaro kelishuvi emas, balki ular o‘rtasidagi yuksak axloqiy qoidalar majmuidir.

Ijtimoiy sheriklikni bozor iqtisodiyotiga asoslangan madaniyatli jamiyatga xos bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos turi sifatida qarash mumkin. Ijtimoiy sheriklik – bu, birinchidan, umumiy manfaatlar va qarashlar bilan birga mutlaqo farq qiluvchi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy manfaatlarga ega taraflar o‘rtasidagi munosabatdir, ikkinchidan, u taraflarning qarama-qarshiligiga emas, balki ijtimoiy konsensus (kelishuv) ga erishishga asoslanadi, uchinchidan, bu shunday munosabatlar turiki, uni amalga oshirishdan barcha ijtimoiy guruhlar hamda davlat manfaatdor bo‘ladi, chunki aynan ijtimoiy sheriklik sharoitida jamiyatda ijtimoiy barqarorlikka, uning rivojlanishiga hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishiladi.

Ijtimoiy sheriklikni amalga oshirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ishtiroki bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi:

birinchidan, fuqarolar yig‘inining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – uning muayyan hududdagi barcha fuqarolarning umumiy muammolarini hal etish yo‘lida birlashuvidir,

ikkinchidan, fuqarolar yig‘inining hududiylik xususiyati, ya'ni fuqarolar yig‘ini muayyan hududda tuzilib, o‘z faoliyatini o‘sha yerda amalga oshirishi,

uchinchidan, fuqarolar yig‘ini vakolatlarining keng qamrovliligi. Nodavlat notijorat tashkilotlar o‘z ustavida belgilangan vazifalaridan kelib chiqib asosan bitta yo‘nalishda ijtimoiy sheriklik yuzasidan faoliyat olib borsa, fuqarolar yig‘ini qonunda belgilangan vazifalardan kelib chiqib turli xil yo‘nalishlarda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy sheriklik masalalari qonunlarda bevosita yozib qo‘yilmagan bo‘lsa-da, unga oid munosabatlar qonunlarda o‘z aksini topgan.

Masalan, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning bir qator moddalarida fuqarolar yig‘ini, uning kengashining davlat

organlar va boshqa tashkilotlar bilan muayyan masalalar bo'yicha hamkorligi masalalari nazarda tutilgan. Shunga alohida e'tibor berish lozimki, aynan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, fuqarolarning ijtimoiy muhofazasiga oid, ijtimoiy foydali maqsadni ko'zlovchi masalalar ijtimoiy sheriklikning ob'ekti bo'ladi.

Qonunning 10-moddasiga muvofiq shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini:

- atrof muhitni muhofaza qilishga ko'maklashadi;
- obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va sanitariya-tozalash ishlari o'tkazish uchun tegishli hududda joylashgan korxonalar va tashkilotlarning mablag'laridan shartnoma asosida foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;
- o'z hududidagi ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini ixtiyoriylik asosida birlashtirish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi.<sup>1</sup>

Shuningdek, Qonunning 12-moddasiga muvofiq fuqarolar yig'inining kengashi ommaviy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, sport tadbirlarini va boshqa tadbirlarni o'tkazishda mahalliy davlat hokimiyati organlariga ko'maklashadi, tarbiyaga oid masalalar yuzasidan ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qiladi, boshqalarning parvarishi va yordamiga muhtoj keksa fuqarolarga shafelik (patronajlik) yordami shu maqsadda ajratilgan davlat byudjeti mablag'lari hisobidan ko'rsatilishiga ko'maklashadi, mazkur hududda yashovchi fuqarolarni ish bilan ta'minlashga, shu jumladan kasanachilikni tashkil etishga ko'maklashadi, tegishli hududda jamoat tartibini ta'minlashda, shu jumladan fuqarolarning kelishi va ketishini hisobga olishni tashkil etishda, o'smirlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish ishida, voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko'maklashadi, aholi punktlari, suv ta'minoti manbalari, turar joylar, maktablar va boshqa ta'lim muassasalarining sanitariya va ekologiya holati ustidan nazorat amalga

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги Қонуни//lex.uz



oshirilishiga ko‘maklashadi, yong‘inga qarshi xavfsizlik talablariga, jonivorlarni saqlashga oid veterinariya qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat amalga oshirilishiga ko‘maklashadi.

Ko‘rib turganidek, fuqarolar yig‘ini hamda fuqarolar yig‘ini kengashining turli davlat organlari – hokimliklar, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, madaniyat va sport ishlari bo‘yicha, ichki ishlar, xalq ta‘limi, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim, sog‘liqni saqlash, tabiatni muhofaza qilish va boshqa davlat organlari, turli korxonalar bilan hamkorlik qilishi Qonunda o‘z aksini topgan.

Bugungi kunda fuqarolar yig‘ini tomonidan yuqoridagi organlar bilan ijtimoiy sheriklik munosabatlari birgalikda choralar ko‘rish shaklida amalga oshirilmoqda, jumladan: 2008 yil 17 aprelda qabul qilingan "Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi Qonunga muvofiq, odam savdosi jinoyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar javobgarligining muqarrarligi, odam savdosidan jabrlanganlarning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik, ijtimoiy hamkorlik odam savdosiga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari sifatida belgilanishi bejiz emas. Mazkur Qonunga binoan, davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, korxonalar, muassasalar, mansabdor shaxslar, shuningdek, fuqarolar ham odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlariga ko‘maklashishi hamda zarur yordam ko‘rsatishlari lozim.

Fuqarolar yig‘inlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha komissiyalar, diniy ma‘rifat va ma‘naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilar hamda “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmalari tomonidan mahallaning ma‘naviy muhitiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan turli illatlarni bartaraf etish, nosog‘lom muhit yuzaga kelgan oilalarni aniqlash va ularga yordam berish, bunday oilalar bilan yakka tartibda ishlash va suhbatlar o‘tkazish, xotin-qizlar, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini va milliy an‘analar, urf-odatlarini targ‘ib etish kabi amaliy ishlarning “mahalla posboni” sardorlari va turli yo‘nalishdagi komissiyalar bilan hamkorlikda amalga oshirib kelmoqdalar.

Ma'naviy-axloqiy muhit bu har qanday insonlar yashaydigan hudud-makonidagi mavjud ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy vaziyatdir.<sup>1</sup>

Barqaror muhit deganda hududda istiqomat qilayotgan jamiyatning barqarorligi, tinch-totuvligi va farovonligini tushunamiz. Bu borada mahalladagi barqaror ma'naviy-axloqiy muhitni saqlash va unga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bilan fuqarolar yig'inlari va davlat organlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlari doimiy asosda yo'lga qo'yildi. Bunda ijtimoiy sheriklik munosabatlari taraflar o'rtasida tuzilgan bosh kelishuvlar va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish bo'yicha shartnomalar asosiga qurilishi, mazkur bosh kelishuvlar va shartnomalar bilan ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish mexanizmi, ularni moliyaviy ta'minlash, taraflarning huquq va majburiyatlari tartibga solinishi lozim bo'ladi.

Shuningdek, fuqarolar yig'inlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat-notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'laridan foydalanish uchun kengroq jalb qilinishi lozim, bunda, Jamoat fondiga davlat granti olish uchun tegishli hujjatlarni tayyorlash, loyihalar yozishni o'rgatish maqsadida Fuqarolik jamiyatini o'rganish instituti mas'ul xodimlari, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi mutaxassislari tomonidan fuqarolar yig'inlari xodimlari o'rtasida o'quv seminarlari tashkil qilinsa maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Xulosa qilib aytganda ijtimoiy sheriklik munosabatlari rivojlangani sari davlat organlari tomonidan fuqarolik jamiyati institutlariga beriladigan davlat grantlari va davlat ijtimoiy buyurtmalari ko'payib boradi. Shu sababli ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal etish uchun davlat grantlari va davlat ijtimoiy buyurtmalaridan foydalanishni kengaytirish maqsadida mahalliy davlat hokimiyati organlari huzurida ham mahalliy byudjetlar hisobidan moliyalashtiriladigan jamoat fondlarining tuzilishi ayni muddao bo'lib, mahalliy miqyosdagi muammolarni hal etish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

---

<sup>1</sup> Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. -B. 54.

## **Xulosa**

O‘zbekiston o‘z mustaqilligining dastlabki yillaridanoq ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ega demokratik davlat qurish, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari asosiy qadriyatga aylanadigan, qonun ustuvorligi ta‘minlanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lini tanladi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan va jahonda keng e‘tirof etilgan islohotlarning “o‘zbek modeli” davlatimiz tomonidan mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish bo‘yicha tanlangan yo‘lning asosiga aylandi. Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tish bu boradagi islohotlarning asosiy tamoyillaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida belgilab berilgan vazifalarning amalga oshirilishi fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishida yangi bosqich bo‘ldi. Uchinchi sektorning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti har yili fuqarolik jamiyatida ro‘y berayotgan jarayonlarning tizimli monitoringi va tahlilini o‘tkazib kelmoqda, ijtimoiy-siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarishda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari rolini yanada oshirishga bag‘ishlangan turli tadbirlar tashkil etmoqda.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida aholi va tadbirkorlarni o‘ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o‘rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyoti va ilg‘or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda quyidagilarni nazarda tutadigan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar

strategiyasi tasdiqlandi. Bu o'z o'zidan ijtimoiy hamkorlikning yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarilishiga asos bo'la oladi.

Monitoring natijalari so'nggi yillarda mamlakatimizda demokratik islohotlarni amalga oshirish, muhim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davlat dasturlarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishda, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlash sohasida qonunlarga rioya qilish hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash ustidan jamoatchilik monitoringini o'tkazishda nodavlat notijorat tashkilotlarining roli va ahamiyati sezilarli darajada kuchayganini ko'rsatdi.

Mamlakatimizda yaratilgan mustahkam qonunchilik bazasi va ko'rilayotgan chora-tadbirlar tufayli nodavlat notijorat tashkilotlari soni yildan-yilga ortib, ularning faoliyati samaradorligi va sifati yuksalib bormoqda. Holbuki, 1991-yilning boshida mamlakatimizda atigi 95 ta nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat yuritir edi.

Shuningdek, Respublikamiz taraqqiyoti davrida nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyati va ularda o'tkaziluvchi madaniy-ma'rifiy tadbirlarning shakli va ko'rinishi ijtimoiy hamkorlik tufayli ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda. Ularda zamon talablariga mos bo'lgan andozalar asosida boyitilgan targ'ibot-tashviqot, nazorat va tashabbuskorlik tadbirlarini olib borish vazifalarini davrning o'zi talab qilmoqda. Bugungi rivojlanayotgan O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining muhim sub'yekti bo'lib nodavlat notijorat tashkilotlari xizmat qilmoqda. Ma'lumki, nodavlat notijorat tashkilotlari millionlab insonlarga ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy jabhalarda talaygina hayotiy muhim vazifalarni hal qilishda, ko'plab ishchi o'rinlarini joriy etish hamda turli ijtimoiy-foydali islohotlarni amalga oshirishda beminnat ko'mak beradi.

Nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashgan fuqarolar o'zlarining turli xil manfaatlari va huquqlarini amalga oshirishni ko'zlaydilar. Mazkur holatda nodavlat notijorat tashkilotlari oldiga fuqarolarning davlat ishlarini amalga oshirishda ishtiroklarini ta'minlash, ularning mavjud qonunchilikka nisbatan ijobiy munosabatlarini shakllantirish va shu orqali ularda huquqiy madaniyatni qaror

toptirish, ularni qonunlarni hurmat qiluvchi shaxs sifatida tarbiyalash kabi yangi vazifalar qo'yilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida insoniyat oldiga muayyan maqsad va vazifalarning qo'yilishi hamda yangidan-yangi muammolarning yuzaga kelishi o'z navbatida, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yo'nalishlarining o'zgarib borishi, o'z-o'zidan uning o'zgacha mohiyat kasb etishiga olib keladi. Binobarin, nodavlat notijorat tashkilotlari bugungi kunda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonining ajralmas va zaruriy bo'g'iniga aylandi. Bunday sharoitda ularning vazifalari doirasi kengayib borishi hamda turli xil shakllarda namoyon bo'lishi ob'ektiv xususiyatga egadir. Yuqorida keltirib o'tilgan omillar esa mavzuning hozirgi davrda naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusi bilan bog'liq adabiyotlarni o'rganish va tahlil natijasida quyidagilarni taklif etaman:

Birinchidan, ijtimoiy hamkorlik sub'ektlari faoliyatini yanada jonlantirish, xususan tarbiyaviy jarayonlarda mazkur mexanizmdan keng foydalanish kerak.

Ikkinchidan, ijtimoiy hamkorlik jarayonida yoshlar ishtirokini ta'minlash, bu jarayonda yoshlar manfaatlari ifodalanishi lozim.

Uchinchidan, ijtimoiy hamkorlik faoliyati va uning samaradorligini ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib etish zarur.

To'rtinchidan, ijtimoiy hamkorlik sub'ektlariga faoliyatni rag'batlantiruvchi imtiyozlar tizimini yaratish kerak.

## **Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati**

### **I. Rahbariy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003.
2. Karimov I.A. O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari.// Xalq so‘zi, 2002-yil 30-avgust.
3. Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish- taraqqiyotimizning muhim omilidir.// Ishonch. 2010-yil 8-dekabr.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.- Toshkent:O‘zbekiston,2010.
5. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.- Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
6. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash -yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
7. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

### **II. Me'yoriy-huquqiy manbalar**

8. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
9. “O‘zbekiston Respublikasining Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil № 5.115-modda.
- 10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi farmoni// Xalq so‘zi, 2017 yil 7 fevral
- 11.O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonuni //lex.uz

12. O'zbekiston Respublikasining «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi qonuni//lex.uz
13. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonuni//lex.uz

### **III. Ilmiy, o`quv adabiyotlar:**

14. Nazarov Q. umumiy tahriri ostida. Fuqorolik jamiyati institutlari faoliyatida ish olib borishning samarali usul va uslublaridan foydaanish” mavzusidagi seminar –trening materiallari. Toshkent. 2009.
15. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining oliy ta'lim muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlarining fakultet sardorlari uchun o'tkazilgan seminar-trening tarqatma materiallari. –Toshkent: O'quv uslubiy markaz, 2015.
16. Odilqoriyev X.T. O'zbekiston demokratik islohotlar yo'lida. To'plam. Toshkent: JIDU, 2001.
17. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
18. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar.-Toshkent:Sharq, 1998 .
19. Xusanov O. Mustaqil va mahalliy hokimiyat. – Toshkent: Sharq, 1996.
20. Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi konsepsiyasi – Toshkent, 2012.
21. Ziyomuxammadov B., Ismoilov F. Barkamol avlodni voyaga yetkazish sirlari. –Toshkent: Sano-standart, 2011.
22. Safarov O., Maxmudov M. Oila ma'naviyati. – Toshkent, 2009.
23. To'ychiyeva S. Norbekov A. Ijtimoiy siyosat.- Toshkent . 2010.

### **IV. Internet materiallari**

24. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
25. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
26. [www.fikr.uz](http://www.fikr.uz)